

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 198

2022 yil "28" 08



TIZIMLI MENEJMENT NAZARIYASI

FAN SILLABUSI

Bilim sohasi:	400 000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000	– Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	70411201	– Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Qarshi-2022 y

Fanning sillabusi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va 2022 yil " 28 " iyundagi 11 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:


T.K.Ergashev "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Fanning sillabusi «Biznes va innovatsion menejment» kafedrasining 2022 yil " 22 " avgustdagi 1 -sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

«Biznes va innovatsion menejment» kafedrasi mudiri:  i.f.f.d Raximov A.N.

Fanning sillabusi "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 1, 2022 yil 24 avgust) va institut Uslubiy Kengashida (bayon № 129 avgust 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i

 dotsent SH. Turdiyev.

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi

 dotsent A.B. Qurbonov

Fan Sillabusi
Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti

Fan (modul) kodi SYSMT7.5	O'quv yili 2021-2022	Semestr 1	ECTS krediti 6
Fan (modul) turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek		Haftalik dars soati 6
Fanning nomi Tizimli menejment nazariyasi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 90	Mustaqil ta'lim (soat) 90	Jami yuklama (soat) 180

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi O'qituvchilar	Biznes va innovatsion menejment	
	F.i.sh.	Telefon nomeri e-mail
Ma'ruzachi	Ergashev Toxir Kurbanovich	+998 90 2570105 Tohir709@gmail.com
Amaliy mashg'ulot	Ergashev Toxir Kurbanovich	+998 90 2570105 Tohir709@gmail.com

I. Fan tavsifi.

O'zbekiston Respublikasi yuksak darajada taraqqiy etgan, ulkan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, innovatsion va intellektual salohiyatga ega davlat sifatida dunyo e'tiborini qaratar ekan, bu esa o'z navbatda boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirishni talab qiladi. Bu sohada asosiy ma'suliyat korxonalar tizimida, boshqaruvning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda ularning barqarorligini ta'minlashga qaratiladi. Shu jihatdan ham ushbu fanda korxonaning iqtisodiy barqarorligi, hayotiyli va samaradorligi uning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yechimini topishga bevosita bog'liq bo'ladi. Bu esa har qanday korxona rivojlanishining tashqi muhitga moslashish tamoyili bilan amalga oshiriladi.

Tizimli menejment nazariyasi fanining asosini zamonaviy menejment amaliyoti masalalarini o'z ichiga oladi. Bunda menejmentning samarali tizimlarini shakllantirish muammolari va ularni takomillashtirish darajasini baholash usullari alohida o'rin egallaydi. Bu fanni o'rganish magistr'larga boshqaruv tizimlari, ularni shakllantirish tamoyillari va faoliyati, shuningdek, funksional va maqsadli menejment, tashkilotlarda personalni boshqarish kabi menejment tizimini tashkil etuvchi elementlar ko'rib chiqish natijasida boshqarish jarayonlarining mohiyatini tushunishda zarur bo'lgan bilimlarni beradi.

II. Fanning maqsadi.

Fanni o'qitishdan asosiy maqsad - talabalarga hozirgi davrning zamonaviy korxona va tashkilotlarida strategik boshqaruv jarayonni shakllantirishni, boshqarish tamoyillarini, tizimlarini, usullarini yaratishni hamda, tizimli menejment sohasidagi muammoli holatni baholash, harakat strategiyasini tuzish va rivojlanish muammolarini hal qilishning inovatsion usullarini topish bo'yicha mutaxassislikka mos bilim, ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

III. Fanning vazifasi

Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, boshqaruv jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, boshqaruv sohasidagi qonunlar, tamoyillar va kategoriyalarning mazmun mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirish va shu orqali inson omilining boshqarish sohasidagi o'rni va ahamitini ochib berish.

IV. Ta'lim berish natijalari

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- menejment tizimi, menejmentning maksadi, tamoyillari, funksiyalari, usullari, tashkiliy tuzilma, personalni boshqarish, menejment texnologiyasi, menejment texnikasi, boshqaruvda axborot va kommunikatsiyalar to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi (bilim)*;
- tashkil etish nazariyasi, menejmentda tashkiliy munosabatlar, menejment tizimini loyihalashtirish, menejmentda tashkiliy madaniyat, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tashkilotning ishbilarmonlik faoliyati sohasida boshqarish metodologiyasi, marketingni boshqarishni *bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma)*;
- mehnat unumdorligini boshqarish, innovatsiyalarni boshqarish, sifatni boshqarish, tavakkalchilikni boshqarish, ish yuritishni boshqarish, korxona personalini rivojlantirish, personal mehnatini baholash, motivatsiya nazariyasi, personalni motivatsiyalash usullari to'g'risida *ko'nikmalariga ega bo'lishi (malaka)*;
- boshqarishning tizimli jarayonlarini tahlil qilishda iqtisodiy ko'rsatkichlarni qo'llash, ularni tizimli tahlil qilish, boshqaruvga tizimli yondashuvning ijobiy va salbiy tomonlariga baho berish, tizimli menejment natijalarini prognoz qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

V. Ta'lim berish usullari

- ijodiy vazifa
- ta'limning faol metodlari:
 - insho yozish;

2. Yuldashev N.K., Lutfullayeva N.X. Teoriya sistemnogo menedjmenta. Uchebnoye posobiye. T., TGEU, 2019 g.
3. Yuldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi. Darslik. - T.:TDIU, 2013.- 433 b.

4. Yo'ldoshev N.Q., Zoxidov F. Menejment. Darslik. -T: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019 y.
5. Frank Rothoemel Strategic Management: Concepts (2nd edition) Mc Graw- H:II Education 9 January. 2014. USA. - 528 p.
6. Ergashev R.X., Tursunov I.E., Ravshanov A.D., Qurbonov A.B. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik. T.-"Voriz-nashriyot", 2020. 448 b.
7. Gancheryonok I.I., Gorbachov N.N., Tursunov I.E., Panjiyev S.A. Sifrovaya ekonomika: upravleniye informatsionnimi resursami/Uchebnoye posobiye/-T: "Voriz-nashriyot" 2020. 207 s.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF -4 947 - sonli Farmoni;
2. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" /-T.:O'zbekiston, 2017.-104 b.
3. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi, 29.12.2020 yil.
4. Mirziyoyev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" /-T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
5. Korotkov E.M. Issledovaniye sistem upravleniY. Uchebnoye posobiye. M.:«Deka»,2010,-254 s.
6. Remennikov V.B. Razrabotka upravlencheskogo resheniY. Uchebnoye posobiye. M.: «YUNITI, 2011, - 324 s.
7. Grant P.M. Sovremenniy strategicheskij analiz. Uchebnoye posobiye. Piter, 2010, - 560 s.
8. Markaryan E.A. Upravlencheskiy analiz v otraslyax: Uchebnoye posobiye. - 3-ye izd. pererab. i dop. - M.: KNORUS - 2009. - 304 s.
9. Kvint V.L. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti [Tekst]: daydjest/V.L.Kvint.- Toshkent.Tasvir. 2018 - 160 b.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.zivonet.uz

- tahliliy hisobot taqdimoti;
- taqdimotning video / slaydlarini tayyorlash;
- nashrlarni tayyorlash;
- blits-savolnoma;
- debatlar va munozaralar;
- muloxaza va nazorat uchun savollar;
- amaliy topshiriq.

VI. Fanning tarkibiy tuzulishi (Content):

№	Mavzular	Ma'ruza mashg'ulotlar rejası	Soat	
			Ma'ruza	Amaliy
1	Menejment tizimi.	1. Menejment: asosiy qoidalar. 2. Menejmentning maqsadi. 3. Menejment tamoyillari. 4. Menejmentning funksiyalari. 5. Menejmentning usullari. 6. Tashkiliy tuzilma. 7. Personal menejmenti. 8. Menejment texnologiyasi. 9. Menejment texnikasi. 10. Menejmentda axborot va kommunikatsiyalar.	6	8
2	Menejmentni tashkil etish	1. Tashkil etish nazariyasi va menejmentda tashkiliy munosabatlar. 2. Menejment tizimlarini loyihalashtirish. 3. Bozor iqtisodiyoti korxonalarining tashkiliy shakllari. 4. Menejmentda tashkiliy madaniyat va uning rivojlanishi. 5. Boshqaruv qarorlari.	4	6
3	Funksional menejment.	1. Ishbilarmon tashkilot faoliyatining sohalarni boshqarish metodologiyasi 2. Marketingni boshqarish 3. Ishlab chiqarishga texnik jihatdan tayyorgarlik ko'rishni boshqarish 4. Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish 5. Ishlab chiqarish zaxiralarini boshqarish 6. Korxonaning ichki ishlab chiqarish faoliyatini nazorat qilish.	4	6
4	Maqsadli menejment.	1. Umumdorlikni boshqarish 2. Innovatsiyalarni boshqarish 3. Sifatni boshqarish 4. Moliyaviy menejment.	4	4

5	Personal menajment.	5. Menajmentda tavakkalchiliklarni boshqarish 6. Ish yuritishni boshqarish 7. Korxonaning ekologik menajmenti. 1. Personalni boshqarish tizimi 2. Personalni rivojlantirish 3. Personalning mehnatini baholash 4. Personalni motivatsiyalash nazariyasi 5. Personalni motivatsiyalash usullari 6. Rahbarning shaxsiy ishini tashkil etish 7. Rahbar – yetakchi.	4	4
6	Tadbirkorlik komponenti personal menajmentining asosi sifatida.	1. Tadbirkorlik komponentasi personal menajmentining asosi sifatida 2. Tadbirkorlik komponentasining rivojlanishi	4	4
7	Tadbirkorlik komponentini rivojlantirish.	1. Menajmentning samaradorligi 2. Mehnat jarayoni va menajmentning globallashuvi	4	4
8	Personal faoliyatini optimallashtirish uchun uning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.	1. Personal faoliyatini optimallashtirish uchun uning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish. 2. Personalni boshqarishda natijalarni ta'minlashga qodir bo'lgan sifatni oshirish dasturi. 3. Tashkilot xodimlari ishining sifatini yaxshilash usullari: 4. Inson resurslarini boshqarishga doir muammolar.	4	4
9	Menajment samaradorligi.	1. Menajmentning samaradorligi. 2. Ma'lumotlarni statistik va ekonometrik tahlil qilish usullari. 3. Samaradorlikni tarqatuvchi statistika usullari.	4	4
10	Mehnat va menajment jarayonlarining globallashuvi	1. Global mehnat tushunchasi. 2. Moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish jarayonlaridagi inson mehnatining o'rni.	4	4
Jami			42	48

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor- o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza

mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

VII. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Boshqaruv tizimida konkret bo'lim faoliyatini tadqiq qilish va baholash.
 2. Tashkiliy tuzilmalarni qurish qoidolari.
 3. Bo'limlarda qarorlarni qabul qilish sxemasini tashkil qilish.
 4. Korxona moliyasini boshqarish mexanizmi.
 5. Moliyaviy menajmentning asosiy vazifalari.
 6. Qarorlarni qabul qilish sxemasini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
 7. Boshqaruv tizimini kompleks tadqiq qilish.
 8. Boshqaruv tizimini loyihalashtirish.
 9. Boshqaruv qarorlarini loyihalashtirish.
 10. Boshqaruv tuzilmasi va qarorlarini qabul qilish tizimini tadqiq va loyihalashtirish.
 11. Tadbirkorlik komponenti personal menajmentining asosi sifatida.
 12. Tadbirkorlik komponentlarini rivojlantirish.
 13. Korxona faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.
 14. Menajment samaradorligi.
 15. Mehnat va menajment jarayonining globalizatsiyasi.
 16. Funktsional menajment va uning elementlari.
 17. Menajmentda tavakkalchiliklarni boshqarish.
 18. Ishbilarmon tashkilot faoliyatining sohalarini boshqarish metodologiyasi.
 19. Ish yuritishni boshqarish.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VIII. ADABIYOTLAR.

Asosiy adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev N.Q., Yusupova D.T. Tizimli menajment nazariyasi. Darslik. T.:TDIU, 2019 y. 270 b.